



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT
INSTITUTI**

**Musiqashunos olim, san’atshunoslik fanlari doktori,
professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga
bag‘ishlangan**

**“O‘ZBEK MUSIQIY MEROSINING TA’LIM
TIZIMIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI”**

Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

2023-yil 28-noyabr

TOSHKENT-2023

UDK 04
KBK 93
O' 25

“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati” mavzuyidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami [Matn]: materiallar to‘plami. – T.: O‘zDSMI, 2023. – 234 bet.

Mas’ul muharrir:

Xudoyev G‘anijon – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi professori v.b., san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Tahrir kengashi a‘zolari:

Turg‘unova Nasiba – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi» kafedrasi dotsenti, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Yakubov Zohidjon – *O‘zRFA San’atshunoslik instituti bosh mutaxassisi, musiqashunos*

Xudoyqulova Nilufar – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi*

Mazkur to‘plamdan joy olgan ilmiy maqolalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2023-yil 27-apreldagi 39-son bayoni hamda O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-maydagi 118-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “2023-yil uchun mo‘ljallangan xalqaro va respublika tadbirlari rejasi”ga muvofiq, 2023-yil 28-noyabr kuni O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” davlat dasturi asosida san’atshunoslik fanlar doktori, professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga bag‘ishlangan **“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati”** nomli Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasidagi materiallar asosida tayyorlandi.

To‘plamga kiritilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va aniqligi uchun mualliflar mas’ul.

1. “Yangi O‘zbekiston - 2030” strategiyasi. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>
2. Isoqov Z. O‘zbekistonda san‘at va madaniyatga e‘tibor – ijtimoiy islohotlarning bosh mezoni sifatida. O‘zDSMI xabarlar, 2019/3 (11). – B.9-11.
3. Primov R.T. Shaxs kamolotida ajdodlarimiz musiqa merosining o‘rni. Maqola. <http://jurnal.org/articles/2015/ped67.html>
4. “O‘zbek milliy maqom san‘atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 2017-yil 17-noyabr. <https://lex.uz/docs/-3581613>
5. “O‘zbek milliy maqom san‘atini yanada rivojlantirish va soha vakillari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash choralari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 2023-yil 30-avgust. <https://lex.uz/docs/-3581613>.

MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA BUXORO BOLALAR FOLKLOR QO‘SHIQLARINI O‘RGATISH

To‘xtasin RAJABOV,

Buxoro davlat universiteti Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasi mudiri, p.f.b.f.d.(PhD)., professor.

Annotatsiya. *Maqolada umumiy o‘rta ta‘lim maktablari musiqa darslarida bolalar folklor qo‘shiqlarini o‘rgatish mktodlaridan foydalanish va bu qo‘shiqlarning yoshlar tarbiysidagi o‘rni va unig ruhiy-hissiy ta‘sir etishning asosiy vositalaridan biri, folklor qo‘shiqlarini tinglash orqali o‘quvchilarda musiqiy tasavvurlar shakllanishida psixologik omillarning ahamiyati, ajdodlarimizning o‘lmas asarlari, folklor qo‘shiqlarini o‘rgatishning ahamiyati xususida fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *musiqa ta‘limi, tarbiya, madaniy meros, ma‘naviy tarbiya, tasavvur, folklor qo‘shiqlari, qadriyat, ritm, his-tuyg‘u.*

Jahon san‘atshunosligida Sharq musiqasi alohida sahifani tashkil etadi. Bu tizimda esa Buxoro musiqiy san‘ati merosi urf-odatlar, ko‘p asrlik tarix va milliy qadriyatga ega. Zamonaviy pedagogika ilmida shu san‘atni milliy qadriyatlar bilan bog‘liq holda o‘rganish dolzarflik kasb etadi. O‘zbek musiqasining qadriyatlarimizga uyg‘un holda rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratilib, o‘zbek san‘ati, jumladan, Buxoro musiqa merosi xalqimizning urf-odatlar ko‘p asrlik an‘analari ruhida rivojlanmoqda.

Buxoro bolalar folklor qo‘shiqlarini va unda o‘zbek millati fazilatlarini ifoda etuvchi jihatlarning pedagogik nuqtai-nazardan o‘rganish fan oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Yosh avlodning musiqiy iste‘dodi va madaniyatini yuksaltirish maqsadida mamlakatimizning har bir shahar va tumanida musiqa va san‘at maktablarining faoliyat ko‘rsatishi bolalarning milliy qadriyatlarimizga, jumladan, o‘tmishdan milliy meros bo‘lib kelayotgan folklor qo‘shiqlariga to‘g‘ri munosabatni shakllantirishni nazarda tutadi.

Mamlakatimizda ma‘naviy meros, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga e‘tibor kuchayib, o‘sib kelayotgan yosh avlodni shu qadriyatlar ruhida har tomonlama etuk, ma‘nan yuksak, komil inson qilib tarbiyalash pedagogika fani oldiga turgan muhim vazifalardan biriga aylandi. Shunga ko‘ra Buxoro musiqa

merosi va uning etuk namoyondalari hayoti, ijodiy faoliyati, umumiy o'rta ta'lim maktablarida Buxoro bolalar folklor qo'shiqlarini o'rgatish ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz⁸²" deb da'vat etadi. Yoshlarni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lishida ajdodlarimiz an'analari, bebaho qadriyatlari va madaniyati, ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, milliy-musiqiy merosi, xususan, xalq qo'shiqlari alohida o'rin tutadi. Bu borada umumiy o'rta ta'lim maktablarining musiqa darslarida Buxoro bolalar folklor qo'shiqlarini o'rgatish metodikasini takomillashtirish, ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek xalq musiqa merosi o'zining tarbiyaviy imkoniyatlari bilan boshqa san'at turlariga nisbatan alohida jozibadorlik va ta'sirchanlik kasb etadi. Xalqimiz o'zining ijtimoiy, ma'naviy taraqqiyotining har bir bosqichida, uning turfa ko'rinishlari, urf-odat va marosimlariga atab juda ko'plab qo'shiqlar namunalarini yaratgan. Bu esa, uzoq o'tmishdan madaniy va ma'rifiy jihatdan o'ziga xos an'anaga aylanib kelgan xalq hayotining turli qirralarini badiiy estetik ifodasi sifatida, an'anaviylik asosida avlodan-avlodga o'tib, kishilar tarbiyasiga bevosita yoki bilvosita kuchli, badiiy-emotsional ta'sirini ko'rsatib kelgan.

O'zbek xalqining boy musiqa merosi xazinasida katta yoshdagi kishilar dunyoqarashi bilan kichik yoshdagi bolalar ma'naviy olamini o'zida mujassamlashtirgan bolalar folklor qo'shiqlari (aksariyat o'yin bilan uzviy bog'liq holda ijro etiluvchi) salmoqli o'rin tutadi. Folklor qo'shiqlari mazmunida bolalarning o'ziga xos quvnoq, o'yinqaroq, sodda va beg'ubor hayoti, dunyoqarashlari, bolalarbop o'yinlar, aytishuvlar va muayyan voqelik bilan bog'liq jarayonlarni ifoda etilishi bilan o'ziga xos xususiyatga ega. Bolalar folklor qo'shiqlarini o'rganish va tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ular ham xalq musiqasining ommaviy turlari singari badiiy va g'oyaviy mazmunga ega bo'lib, sodda shakli, ijro uslubi, nihoyatda ixcham, o'yin-raqs xarakteriga egadir. Shularga ko'ra ulardan ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarda keng foydalanishda qulaylik tug'diradi. Folklor qo'shiq namunalari bolalarning ruhiy, aqliy, badiiy tafakkuri va dunyoqarashiga mos soddaligi, kuylashga oson va qulayligi bilan bolalar diqqatini o'ziga tez jalb qila oladi. Shuning uchun ham maktabgacha ta'lim muassasalari hamda umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'quvchi-yoshlarda milliy musiqa san'atimizga qiziqish va ishtiyoq uyg'otish, bolalar folklor qo'shiqlarini o'rganish, kuylash jarayonida ularning g'oyaviy-badiiy mazmunini anglash, idrok etish, tasavvur etish bilan ularga o'z munosabatini bildirish, ya'ni tavsif berishga o'rgatib borish va shu asosda

⁸²Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фарвон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. -Тошкент: Ўзбекистон, 2016. - 56 Б.

bolalarda musiqa san'atining asta-sekinlik bilan jiddiy hamda murakkab turlariga ijodiy, faol munosabatni shakllantirish mumkin. Bu esa bugungi kunda musiqa ta'limi va tarbiyasi uchun mas'ul tarbiyachilar, pedagoglar va to'garaklar rahbarlari oldidagi eng muhim va ahamiyatga molik vazifalardan hisoblanadi.

Umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'qitiladigan fanlar dasturi va darsliklarida ko'plab xalq og'zaki ijodiyoti namunalari bilan bir qatorda xalq qo'shiq va aytimlari hamda bolalar folkloriga oid namunalar qisman kiritilgan. Ta'limning ilk davrlaridan boshlab bolalarga bunday namunalarni o'rgatish, ijro ettirish jarayonida ularga og'zaki an'anadagi milliy folklor musiqasi, uning etakchi janrlari, tuzilishi va an'anaviy ijro uslublari haqida eng zarur tushunchalarni berish asosiy maqsad qilib qo'yish lozim.

Milliy folklor musiqasida Buxoro bolalar folklor qo'shiqlari o'zining ohangdorligi, o'ynoqiligi, jo'shqinligi, yoqimlilik, milliy xislatlarni ifodalanishi, qo'shiqlar matni yordamida xalqning etnik turmushtarzi va milliy qadriyatlarning yorqin tasvirlanishi bilan o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Buxoro bolalar folklor qo'shiqlarining o'ziga xos xususiyatlari. "Boychechak" (O.Safarov, K.Ochilov), "Alla-yo-alla" (O.Safarov), "Bo'zlardan uchgan g'azal-ay" (O.Safarov, D.O'raeva), "El suyarim, alla" (O.Safarov), "Buxoro elida gul sayli" (D.O'raeva, D.Rajabov), Xalq qo'shig'i va musiqa ijrochiligi (D.Rajabov, T.Rajabov) kabi to'plamlarda aks ettirilgan. Buxoro bolalar folklor qo'shiqlarida barcha mavzularga oid namunalarni T.I.Rajabov tomonlaridan notaga olinganligini uchratish mumkin. Masalan "Ramazon", "Kal", "Opa-opa anjilo", "Ha do'rsa – do'rsa, do'rsa", "Aho-aho sulfa dorem", "Bedona", "Jizir-jizir jaz mexurem", "Oh dina-dina, dinashba" va boshqa qo'shiqlar shular jumlasidandir.

Buxoro bolalar folklor qo'shiqlari tarkibidan o'rin olgan ovutmachiq va erkalama qo'shiqlar alohida ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarni estetik tarbiyalash, ularga milliy qadriyatlarni singdirish, .ajdodlar an'analardan xabardor qilish va barkamol inson shaxsini shakllantirishda ijobiy ta'sir ko'rsatadigan xususiyatlarga ega. Ilmiy-tadqiqot ishlari davrida Buxoro bolalar folklor qo'shiqlarini o'rganish vositasida o'quvchilarni estetik tarbiyalash muammosi bo'yicha ellikdan ortiq dars yozib olinib, tahlil etildi. Shuningdek, musiqa fani o'qituvchilaridan "Estetik tarbiya berishning maqsad vavazifalari nimalardan iborat", "Musiqa madaniyati darsligida Buxoro bolalar folklor qo'shiqlarining o'rni qay darajada ifodalangan", "Estetik tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat" kabi savollarga javoblar olindi. Mazkur so'rovnoma ishtirok etgan 95 nafar oliy ma'lumotli musiqa o'qituvchisining sayoz tasavvurga ega ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, aksariyat o'qituvchilar darslarda Buxoro bolalar folklor qo'shiqlaridan foydalangan holda o'quvchilarni estetik tarbiyalashda nimalarga e'tibor qaratish lozim? degan savolga javob berishga qiynalganlari ayon bo'ldi.

Buxoro bolalar folklor qo'shiqlari umumiy o'rta ta'lim maktablari musiqa darsida o'rgatish davomida olib borgan kuzatishlarimizdan ma'lum bo'ldiki,

musiqa madaniyati darslarida o‘quvchilarni estetik tarbiyalashga ta’sir qiladigan hamda o‘qituvchilarning faoliyatida uchraydigan qiyinchiliklarni to‘rt guruhga ajratish mumkin. Birinchisi, o‘qituvchilar va o‘quvchilarning estetik tarbiya mohiyati, vositalari, milliy musiqa va Buxoro bolalar folklor qo‘shiqlari o‘rtasidagi farqlarni ajrata olmaslik guruhi; ikkinchisi, musiqani idrok etish, qo‘shiq kuylay olish, cholg‘u asboblarda kuy ijro etish, musiqa ijodkorligi bilan shug‘ullanish qobiliyatiga ega bo‘lmaganlar guruhi; uchinchisi, folklor qo‘shiqlaridagi rang–baranglik, ta’sirchanlik, jozibadorlikni farqlamaslik, ularni tinglay va kuylay olmaslik guruhi; to‘rtinchisi, Buxoro bolalar folklor qo‘shiqlarining ijrosi va raqs harakatlari bo‘yicha bilimga ega emaslik guruhi.

Ko‘rinib turibdiki, xalqimizning ko‘p asrlik ma’naviyati, milliy qadriyatlari, hayotiy udumlarini o‘zida aks ettirgan Buxoro bolalar folklor qo‘shiqlarining namunalari musiqa darslarida etarli darajada o‘z ifodasini topmagan. Bizningcha, maktab darsliklariga milliy musiqiy merosimiz namunalari-xalq qo‘shiqlari, folklor asarlari ko‘proq kiritilsa, yoshlarimizning ma’naviy, axloqiy hamda estetik tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Buxoro bolalar folklor qo‘shiqlari o‘quvchilarda ma’naviy–axloqiy sifatlarni rivojlantiradi”, “O‘quvchilarni ma’naviy etuklikka yo‘llaydi”, “Zamonaviy qo‘shiqlarga nisbatan Buxoro folklor qo‘shiqlari bola tarbiyasiga kuchli ta’sir qiladi, buning boisi ushbu qo‘shiqlarda mardlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, sadoqatlikning yuqori darajada ifodalanishidadir”.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Musiqa madaniyati darslarida o‘quvchilarni estetik tarbiyalashda Buxoro folklor qo‘shiqlarining o‘rganishga alohida vaqt ajratish;

2. Musiqa madaniyati fani o‘qituvchilariga Buxoro bolalar folklor qo‘shiqlarining ijrosi bo‘yicha kurslar tashkil qilib, ularning nazariy va amaliy bilimlarini takomillashtirish;

3. Musiqa o‘qituvchilarini tayyorlash tizimiga Buxoro bolalar folklor qo‘shiqlari vositasida o‘quvchilarni estetik tarbiyalashga oid amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish yo‘llari, usul va metodlarini ishlab chiqish;

4. Buxoro bolalar folklor qo‘shiqlarini o‘rganish tizimini ishlab chiqib, amaliyotga joriy qilish;

5. Musiqa madaniyati o‘quv fani uchun tuziladigan dastur va darsliklarda Buxoro bolalar folklor qo‘shiqlari namunalari alohida soatlar va bo‘limlar ajratish maqsadga muvofiqdir

6. Folklor qo‘shiqlarni unitilishini oldini olish maqsadida barcha viloyat va tumanlarda tadqiqot ishlarini yo‘lga qo‘yish, olib borilgan ishlar natijalarini notalarga olib zarur.

Adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent “O‘zbekiston” – 2017-y.

2. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida .O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 1-ilova: “2017-2021-yillarda

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”. Xalq so‘zi gazetasi. 2017-yil 8-fevral soni va Internet resurs: www.lex.uz.

3. Mirzayev T. O‘zbek folklorida lapar. – O‘TA, 1998, 4-son. Navro‘z// Qo‘shiqlar, afsonalar, odatlar, irimlar, Tuzuvchilar: T.Mirzayev, M.Jo‘raev –T.: “Fan”

4. Toshmatov O‘.Folklor qo‘shiqlari.T:Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.- B.6.

5. Safarov O. O‘zbek bolalar folklori.T:”O‘qituvchi” 1985.-B.5.

6. Musaqulov A. Terma kitobda: “O‘zbek folklori ocherklari”, 1-tom. –T.: “Fan”, 262-272-b. yana: O‘zbek xalq lirikasi. –T.: “Fan”, 1995; O‘zbek xalq lirikasining tarixiy asoslari va badiiyati. DDA. –T.: 1995; Ostonasi tillodan // To‘y qo‘shiqlari (Tuzuvchilar M.Mirzaev, A.Musaqulov) – T.: “Fan”, 1998.

7. Rajabov T. Educational importance of folk songs in primary education //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2021. – T. 1. – №. 01. – S. 72-79.

8. Radjabov T.I., Rutamova M.F. Formirovanie duxovno-nravstvennykh kachestv uchashixsya cherez narodnyye pesni v sisteme nepreryvnogo obrazovaniya – aktualnaya pedagogicheskaya problema // EVROPEYSKIY JURNAL INNOVATSIY V NEFORMALNOM OBRAZOVANII. – 2022. – T. 2. – №. 2. – S. 404-408.

9. Rajabov T. I., Ibodov O. R. O‘zbek xalq musiqa merosida o‘quvchilarni vatanparvalik ruhida tarbiyalash vositasi //Ijtimoiy Fanlarda Innovatsiya onlayn ilmiy jurnali. – 2021. – T. 1. – №. 6. – S. 139-145.

10. Rajabov T.I. Uovershenstvovanie nauchno-metodicheskix vozmojnostey obucheniya buxarskim detskim folklornim pesnyam v sredney obshchobrazovatelnoy shkole //Nauka, texnika i obrazovanie. – 2021. – №. 2-2 (77). – S. 84-86.

G‘IJJAK CHOLG‘U SOZIDA MILLIY MUSIQIY MEROSNI O‘RGANISH MASALALARI

G‘anijon XUDOYEV,

*O‘zDSMI, “Cholg‘u ijrochiligi va
musiqa nazariyasi” kafedراسi professori v.b.,
san‘atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).*

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada g‘ijjak cholg‘u sozi ijrochiligini o‘rganishda o‘zbek milliy musiqa merosiga mansub milliy bezak va qochirimlarning tutgan o‘rni, shuningdek, g‘ijjak cholg‘u sozi ijrochiligini o‘zlashtirishga qaratilgan “Maxsus cholg‘u” fanining ahamiyati mazkur fanda yaratilgan mavjud adabiyotlar kesimida tahlil qilindi.*

***Kalit so‘z:** g‘ijjak, nola, qochirim, an‘ana, kashish, maxsus cholg‘u.*

So‘nggi yillar Yangi O‘zbekistonda san‘atning barcha sohalari kabi musiqa san‘atida ham yangi sifat va o‘zgarishlar ro‘y berdi. Bu hol, jumladan musiqa ta‘limida ham yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Bu albatta bevosita ta‘limga, xususan, musiqa ta‘limiga Hukumat darajasida yuksak e‘tiborning samarasidir.

Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida”gi 60-PF-sonli Farmonida belgilangan “2026-yilga qadar o‘quv dasturlari va darsliklarni ilg‘or xorijiy tajriba asosida to‘la qayta ko‘rib chiqib,